



## XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 28-mart

VII-8-39-7-96-K/25

Kattaqo‘rg‘on tumani

**Tuman aholisini uzluksiz elektr energiyasi bilan ta’minlash borasida  
2025-yilda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar to‘g‘risidagi tuman Elektr  
tarmoqlari korxonasi boshlig‘i J.Alimovning hisoboti haqida**

O‘zbekiston Respublikasi “Elektr energetikasi to‘g‘risida”gi qonuni ijrosi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 13-fevraldagagi “Yoqilg‘i-energiya resurslaridan foydalanish sohasida davlat nazorati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-54-sonli qarori ijrosi, shuningdek, Qoradaryo elektr tarmoqlari korxonasi rahbari o‘rinbosari S.Axmedovning hisobotini tanqidiy muhokama etib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashi VII chaqiriq sakkizinchi sessiyasi

**QAROR QILADI:**

1. Tuman aholisini uzluksiz elektr energiyasi bilan ta’minlash borasida 2025-yilda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar to‘g‘risidagi tuman Elektr tarmoqlari korxonasi boshlig‘i J.Alimovning hisoboti tanqidiy jihatdan muhokamalar natijasiga ko‘ra qabul qilinmagan deb hisoblansin.

2. Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashi huzuridagi agrar, suv xo‘jaligi va ekologiya masalalari bo‘yicha doimiy komissiya (M.Xolova) Kattaqo‘rg‘on tumani elektr tarmoqlari korxonasi boshlig‘i J.Alimov tomonidan 2024 yilda amalga oshirilgan ishlari hamda aholini uzluksiz elektr energiyasi bilan ta’minlash samaradorligi doimiy komissiya yig‘ilishida muhokama qilib, navbatdagi sessiyalra muhokamasiga kiritilishini ta’minlasin.

3. Tuman elektr tarmoqlari korxonasi boshlig‘i J.Alimov xalq deputatlari tuman Kengashining navbatdagi sessiyalarida “Tuman aholisini 2024 yilda uzluksiz elektr energiyasi bilan ta’minlash hamda kelgusi yilda amalga oshirish lozim bo‘lgan ishlari samaradorligi to‘g‘risida”gi muhokamalarga puxta tayyorgarlik ko‘rib ishtirok etishi lozimligi ko‘rsatib o‘tilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashining agrar, suv xo‘jaligi va ekologiya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Xolova) hamda tumani hokimining o‘rinbosari (M.Rasulov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV  
JAMSHID  
TULKINOVICH